

PUDRAT SHARTNOMASI № 5

Paxtaobod tuman

«23» iyun 2022 yil

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi **Paxtaobod tuman XTB** uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari A.O'smanov bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi **«ZUBAYR LYUKS INVEST» MCHJ** uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari Sh.Ko'ldashev ikkinchi tomondan maktab binosini isitish tizimini va kozonxonasini mukammal ta'mirlash ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar:

1. Shartnomaning mavzusi

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi»ning 8-maktab binosini isitish tizimini va kozonxonasini mukammal ta'mirlashni nuqson dalolatnomasi va smeta xujjalariha hamda **“13” iyun 2022 yil “20” iyun 2022 yil kungi № 22110012104151**-lotga asosan maktab binosini isitish tizimini va kozonxonasini mukammal ta'mirlash ishlarini bajarib beradi.

2. Shartnomaning baxosi va hisob-kitob tartibi.

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyiha smetaga asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiy qiymati 224.100.000 (ikki yuz yigirma to'rt million bir yuz ming) so'm to'lab beriladi. Ta'mirlash ishlarini 15 kun mobaynida sifatli kilib bajarib beradi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil hisoblanib, fakatgina ishlar xajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganidan va fors major xolatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chikilib, tomonlar o'rtaida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. Shartnoma tomonlar o'rtaida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 30% foizini ya'ni 67.230.000 (oltmis etti million ikki yuz o'ttiz ming) so'm oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovning qolgan 70% foizi, ya'ni 156.870.000 (bir yuz ellik olti million sakkiz yuz yetmish ming) so'm «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi (F-3) asosida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» oxirgi to'lovni «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish – topshirish dalolatnomasi (F-3) va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatları.

3.1. «Pudratchi» ning majburiyatları

Shartnoma imzolanganidan so'ng ish bajarilgan ob'ektni «Buyurtmachi» dan dalolatnomaga (F-2) asosan qabul qilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan loyiha smeta xujjaliga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida ishlarni bajarishga kirishadi.

Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari bilan bajarish hamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnomalariga muvofiq topshiradi.

3.2. «Pudratchi»ning huquqlari

Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans haq to‘lanishi va ishni bajarib topshirgandan so‘ng to‘la hajmda hisob-kitob qilinishini talab qilish;

Bajarib berilgan ishni qabul kilib olish asossiz ravishda rad etilishini natijasida yetkazilgan zararni qoplashini talab qilish;

3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatlari

Tasdiqlangan smeta bo‘yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlarni uchun o‘z vaqtida haq to‘lash;

3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari

«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlariga va boshqa me’yoriy xujjatlar bilan ta’minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shahs tomonidan to‘g‘rlanishi harajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Pudratchi»dan shartnomada ko‘rsatilgan ishlarni qabul qilish kommissiyasi ishtirokida smeta xujjatlarini asosida ishni sifatli bajargan xolda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni shartnomalariga va ish xujjatlariga muvofiqligini nazorat kilish:

4. Tomonlarning javobgarligi.

4.1. Tomonlardan biri shartnomalariga majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to‘laydi;

4.2. «Pudratchi» ob‘ektni o‘z vaqtida toprishmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnomalariga majburiyatlarini bajarilmagan qismining 0.5% miqdorida penya to‘laydi. To‘lanadigan jarima summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50% idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Pudratchi» tomonidan o‘z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» to‘lovlar to‘xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20%i miqdorida «Pudratchi» jarima to‘laydi.

4.4. Bajarilgan ishlarni uchun «Buyurtmachi» tomonidan o‘z vaqtida haq to‘lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0.4%i miqdorida penya to‘laydi. To‘lanadigan jarimani umumiy summasi kechiktirilgan to‘lovlarining 50%i miqdorida ortmasligi kerak.

4.5. To‘lanadigan jarimalar shartnomalariga majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

5. Fors major xolatlar.

5.1. Ushbu shartnomalariga bo‘yicha majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarilmamasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo‘lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlardan shartnomalariga majburiyatlarini bajarlisisiga bevosita ta’sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

6. Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va nizolarni xal qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'li bilan hal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan hal etish imkon bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, «31» dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jixatdan teng kuchli hisoblanadi.

8. Tomonlarning rekvizitlari.

«PUDRATCHI»

Nomi: **«ZUBAYR LYUKS INVEST»**
MCHJ


Manzili: Paxtaobod tumani Navro'z MFY

Bank nomi: Mikrokredit bank Paxtaobod filiali
X/r: 2020 8000 6050 4156 1001

MFO: 00078

STIR (INN): 306 199 207

XXTK (OKONX): _____



M.O'.

«BUYURTMACHI»

Nomi: **Paxtaobod tumani Xalq ta'limi bo'limi**

Manzili: Paxtaobod tumani Kelajak ovozi ko'chasi

SHXR:
401722860032327092100075006
STIR (INN): 200294928

XXTK (OKONX): 97600

G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi
X/R:23402000300100001010
INN:201122919 MFO:00014
Banki: Markaziy bank XKKM Toshkent shahri



Raxbar: _____

A.O'smanov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**
№ SL24502035

2022-yil 22-iyun.

Paxtaobod tumani

- 1. Loyihaning turi:** Shartnoma.
- 2. Loyihaning nomi:** “Pudrat shartnomasi”

Shartnoma tuzuvchilar bir tomonidan «Buyurtmachi» deb ataluvchi **Paxtaobod tuman XTB** uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari A.O’smanov bir tomonidan va «Pudratchi» deb ataluvchi **«ZUBAYR LYUKS INVEST»** MCHJ uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari Sh.Qo’ldashev ikkinchi tomonidan Paxtaobod tuman XTBga qarashli 8-maktab binosining isitish tizimini va kozonxonasini mukammal ta’mirlash ishlariiga doir pudrat shartnomasi tuzilgan.

Shartnoma predmeti:

«Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi»ning 8-maktab binosini isitish tizimini va kozonxonasini mukammal ta’mirlashni nuqson dalolatnomasi va smeta xujjalariha hamda **“13” iyun 2022 yil “20” iyun 2022 yil kungi № 22110012104151**-lotga asosan maktab binosini isitish tizimini va kozonxonasini mukammal ta’mirlash ishlarini bajarib beradi.

Bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyiha smetaga asosida to‘liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiy qiymati 224.100.000 (ikki yuz yigirma to‘rt million bir yuz ming) so‘m to‘lab beriladi. Ta’mirlash ishlarini 15 kun mobaynida sifatli kilib bajarib beradi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.08.1998 yildagi (670-I-son), 13.06.2022 yil kungi **№ 22110012104151**-lot raqami, harajatlar smetasi, defektniy akt, ekspertiza xulosasi, texnik topshiriq, (elektron)Yig‘ilish bayoni.

Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot

Paxtaobod tuman xalq ta’limi bo‘limi tomonidan 21.06.2022

**Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul
qilish maqsadga muvofiq.**

Paxtaobod tuman Adliya bo‘limi

Yuridik xizmat ko‘rsatish

markaz bosh yuriskonsulti:

B.Sattarov

